



QONUN – TILGA E'TIBORSIZ, ELGA E'TIBORSIZ ... , YOXUD TILIMIZ DARVOZASI OCHIQMI?

Muxtorov O'tkirjon Rustam o'g'li

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7259964>

ARTICLE INFO

Received: 15th October 2022

Accepted: 20th October 2022

Online: 28th October 2022

KEY WORDS

qonun, milliy yuksalish, badiiy tafakkuri, konstitutsion huquq, rekonstruksiya, utilizatsiya, rekreatsiya, prognoz, rezervat.

ABSTRACT

Mazkur maqolada bugungi kunning eng dolzarb mavzularidan biri hisoblangan Qonun – tilga e'tiborsiz, elga e'tiborsiz..., yoxud tilimiz darvozasi ochiqmi? Mavzusida o'z mulohazalarimizni bayon etamiz.

O'zbekistonimiz "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko'tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o'rni va nufuzi tobora oshib boradi.

Xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biri ekanligi barchamizga sir emas.

Bundan 33 yil muqaddam qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi Qonunining muqaddimasi quyidagi jumalarni o'z ichiga olgan edi:

"Til millatning ulkan boyligi va bebaho mulkidir. Sotsializmni, millatlararo munosabatlarni takomillashtirish, xalqlarning milliy va baynalmilal o'zligini

anglashning o'sishi milliy tillarni har tomonlama rivojlantirishni taqozo etadi."

Haqiqatdan ham mazkur talab haligacha o'zining dolzarbligini yo'qotgan emas.

O'zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinishi bilan yoki Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan 167-I-son "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi Qonunga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq yangi tahrirda qabul qilingan bo'lishiga qaramasdan o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublikada yashovchi boshqa millat va elatlarning o'z ona tillarini qo'llashdan iborat konstitutsion huquqlariga monelik qilmasdan keldi.

XXI asr avvalgi davrlardan eng katta farqi dunyoni "toraytirib" yuborganligi bilan ajralib turadi. Demoqchimizki, internet asri bir nafasda dunyoning bir burchagida sodir



etilgan voqealarni, jarayonlar va yangiliklarni hattoki ommalashgan so'zlarni tezda siz-u bizga yetkazib turibdi. Natijada iste'molga shiddat bilan kirib kelayotgan xorijiy atamalar xalqimiz orasida ommalashib ketayotgani kuzatilmoqda.

Masalan, "rekonstruksiya", "utilizatsiya", "rekreatsiya", "prognoz", "rezervat", "pitomnik" kabi iboralarni hattoki qonunchilik normalarining ham matnida tez-tez uchrayotganligini ko'ramiz.

Iste'molga kirish uchun o'z navbatini kutayotgan so'zlar ham kam emas, bular: "standart, inauguratsiya, provodka, ekspeditsiya, bufer, brakonerlik, ansambl" iboralaridir. Holbuki, mahalliy davlat boshqaruvida ular keng iste'molda ekanligi kuzatilmoqda.

Mummo esa bu ommalashishni tartibga solishga qaratilgan "Davlat tili haqida"gi Qonunning 7-moddasidagi ya'ni "Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis palatalari tegishli qo'mitalarining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi." Talabidan chetga chiqib borayotganini ham ko'rish mumkin.

Masalan, "urbanizatsiya" "rekonstruksiya", "utilizatsiya", "rekreatsiya", "prognoz", "rezervat", "pitomnik" kabi iboralar qonunchilik normalarining ham matnida muntazam uchramoqda.

Bir qarashda, qonunlarni tushunish darajasini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Ma'lumki, bugungi kunda aholining aksariyat qismi internet tarmoqlari orqali yoki chet tillarini o'zlashtirishga bo'lgan ishtiyoqi sababli bu kabi ilmiy atamalarni osongina tushunib, til iste'molida muvofiq shaklda ishlatib kelmoqda.

Shunga mos ravishda davrimizning qonunlari ham amaldagi taraqqiyotga "yugurib" ham yetib ololmayapti. Qonun o'zining tartibiga qabul qilishi bilan bu ijtimoiy munosabatlar yangicha tusga kirib bormoqda. Natijada esa, texnika kabi qonun normalari ham yildan yilga eskirish tezligiga ega bo'lib qolmoqda.

Shu o'rinda haqli savol yuzaga keladi bu yashin tezligida yangilanishlar davlat tilga qanchalik ta'sir ko'rsatadi? Mazkur ta'sir ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkinligini kim nazorat qiladi yoki bartaraf eta oladi?

Tahlillarga ko'ra "Davlat tili haqida"gi Qonun 1995-yilda yangi tahrirda bir marotaba qabul qilingan bo'lsa, 2004-yil, 2010-yil, 2011-yil, 2017-yil, 2020-yil hamda 2021-yillar davomida jami 6 marotaba o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

Bu o'zgartirishlar bilan ham qonunda davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlari, davlat tilini rivojlantirishdagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari, davlat organlari va tashkilotlarining davlat tilini rivojlantirish sohasidagi vakolatlari, davlat tilini rivojlantirish va davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazorati kabi zamon talab qilayotgan yangi normalar kiritilmasdan qolmoqda.

Natijada esa yuqoridagi talablarni o'zida aks ettirmagan qonun mustahkam emasligi uchun ham ijrosini ta'minlashda mutassadi davlat idoralari muammolarga duch keladi. Masalaning ikkinchi tomoniga qaraydigan bo'lsak, "Davlat tili haqida"gi Qonunning 7-moddasi ham yuqoridagi kabi immiy texnikaviy yangiliklarni o'zida aks ettirishi uchun Oliy Majlis palatalari tegishli qo'mitalarining roziligi talab qilinishi murakkab jarayon sifatida ko'zga tashlanadi.



Amaliyotda, davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi. Biroq, rasmiy doiralar tomonidan ishlatilishi boshlangan har qanday yangi atama yoki so'z tilda to'g'ridan to'g'ri qabul qilib borilishi har doim ham davlat tili bo'lgan o'zbek tilining boyitib borishga xizmat qilmasligi mumkin. Aslini olib qaraydigan bo'lsak til ham asrlar davomida shakllanib biz bilgan darajada chet tilidagi so'zga atamalarni o'ziga kiritib borib boyib borgan.

Shuni unutmash lozimki, bugungi kunda tilga xuddi uning o'zidagi so'z kabi ishlatilib kelayotgan aksariyat so'zlar o'z davrida fors, arab, turk, urdu kabi yana boshqa tillardan kirib kelgan.

Buning birgina sababi bu so'zlar kirib kelishiga o'sha davrdagi ilm-fan rivojlanishi hamda savdo-iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yilishi yoki xalqlarning madaniy yaqinlashuvlari sababidan hosil bo'lgan.

Xuddi bugungi kunda dunyo tili bo'lib borayotgan ingliz tilidagi boshqa millat, ellat va til vakillari ham e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va albatta ijtimoiy-siyosiy atamalar osongina bizning tilga kirib kelishini erkin qabul qilishimiz lozim.

Chunki, dunyo bozorida raqobatbardosh bo'lish uchun ham yuqori saviyadagi sheriklarimizning kimligini, madaniyatini va tilini bilishimiz lozim. Xalqaro standartlar kimning va nimaning hisobiga qurilganligiga qarab ham tillarda bu doiradagi so'zlar osongina hazm qilinadi va ommalashtiriladi.

Shu o'rinda biz bir narsani nazarda chetda qoldirmasligimiz kerak, qaysi bir yangilik, xoh u texnika, sanoat, ishlab chiqarishi yoki boshqa ilm fanning sohalariga oid bo'lmasin qaysi davlat, yoki qaysi millat vakil tomonidan yaratilgan bo'lsa, o'sha

tilning atamalari bilan boshqalar tomonidan o'zlashtiriladi.

Bu esa mazkur yangilikni bir xilda tushunish va uni tadbqiq qilishga katta yordam beradi. Shu sababli biz tan olib ayta olamizki, kirib kelgan aksariyat ilmiy atamalar yangiliklarni to'liq tushunish uchun qabul qilinadi.

Lekin ba'zi holatlarda bu kabi yangi atamalar individual shaxslarning fikri, g'oyasi, milliy madaniyatini yangi xalqlarga singdirish va kirib borishiga xizmat qilish uchun ham ommalashtiriladi.

Bu esa albatta tilimizning sof holda saqlanishiga yoki saviyasiga putur yetkazadi.

Shuni oldini olish maqsadida tilimizdagi nomaq'bul atamalardan keng jamoatchilik foydalanib ulgurmasidan turib nazorat o'rnatish joiz.

Qonun hujjatini o'zgartirish bilan vaziyatga yechim toppishni emas, balki uni o'z vaqtida bartaraf etmaslik natijasiga tilni saviyasiga yetkaziladigan ziyonning oqibatini aniqlash va uni oldindan bartaraf etish-birinchi masalaga aylanishi kerak.

Agar biz doimgiday zamonaviy til bo'lish lozimligi ortidan quvib yangi kirib kelayotgan so'zlarni mazmuni va mantig'iga e'tibor qilmasdan qabul qilaversak albatta tilimizga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, uni filtirlovchi idoralarni ishga solib tildagi yangi atamalarni qabul qilish mumkin bo'lgan sohalarni ko'rsatib ommaga ma'lum qilib borsak, tildagi o'zgarishlar omma tomonidan ham to'g'ri qabul qilinadi, qonunbuzilishi holatini oldi olingan bo'lardi.

E'tibor qaratish kerakki, "rekonstruksiya", "utilizatsiya", "rekreatsiya", "prognoz", "rezervat", "pitomnik", "konsolidatsiya", "REPO operatsiyalari", "identifikatsiya",



“domen zonasi” kabi iboralarni tilimizga olib kirmaslik pozitsiyasida bo‘lsak, dunyo bozoriga chiqish, yangi ilmiy masalalarni tahlil qilish va tushunishga imkon berilmasligi kabi salbiy holatlar ham kelib chiqishi mumkin.

Misol sifatida aytish mumkinki, tibbiyot ta’limiga oid “internatura” ta’lim bosqichi o‘zbek tiliga “birlamchi ixtisoslashtirish vrachlarni qayta tayyorlash” deb, “benefitsiar mulkdor”- pirovardida mulk huquqlariga egalik qiladigan yoki tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchini amalda nazorat qiladigan jismoniy shaxs deb, “royalti” -har qanday nomoddiy aktivdan foydalanganlik yoki foydalanish huquqi uchun to‘lovlar deb, “xedjir” - soliq to‘lovchi uchun noxush oqibatlarni (to‘liq yoki qisman) kamaytirish (kompensatsiya qilish) deb, “iqtisodiy konsentratsiya” - xo‘jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining ustunligiga olib keladigan, tovar yoki moliya bozoridagi raqobatning holatiga ta’sir ko‘rsatadigan bitimlar tuzish va (yoki) boshqa harakatlarni sodir etishdeb qonun hujjatlarining o‘zida tarjima (izoh beriladi) qilinadi. Bu kabi misollarni ko‘plab keltirish mumkin hamda bu kabi ijobiy holatlarni yanada ko‘paytirish kerak.

Shu yo‘l bilan tilning sofligini hamda ilmiy atamalarining muqobil variantlaridan ham tilimizning imkoniyatlarini yanada ochib berishimiz mumkin. Bu esa, tildagi mustahkamlikni saqlab qoladi.

Dunyo tamadduni bizga hech bir til, madaniyat o‘zgarishga uchramasdan bir xilligini saqlab qola olmasligini isbotlagan. Chunki, har ikki tomondan ham munosabatga kirushuvchilar inson bo‘lganligi sababli, u yoki bu jabhada xalqlar, tillar va madaniyatlar kirishimli bo‘lib boraveradi.

Natijada esa yuqoridagi kabi yangiliklarni har til o‘ziga qabul qilishda o‘zining imkoniyatlaridan foydalangan holda uni o‘zicha qabul qilishi yoki izohini kiritishi shart.

“Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasini birgina o‘zgartirish kiritish bilan hal qilishni emas balki, tilning egasi bo‘lgan ilmiy doiralar ishtirokida kirib kelayotgan ilmiy-texnikaviy so‘zlarni tilimizdagi muqobil variant topilmasa, yoki topilgan so‘zni tushunish izohlash mushkul bo‘lsagina mazkur atamani to‘g‘ridan to‘g‘ri ilmiy adabiyotlarda yoki yuridik texnika tilida foydalanish mumkin bo‘lgan tartibni yo‘lga qo‘yish lozim.

Masalan, “prinsip” so‘zining o‘zbek tilidagi muqobili “tamoyil” bo‘lgani uchun prinsip so‘zini rasmiy tilda ishlatmaslik maqsadga muvofiq.

Asosiy maqsadimiz qonuniylilikni ta’minlashdan iborat ekanligining o‘zi ham bizni, har qanday holatda unga amal qilgan holda ish ko‘rish lozimligini unutmaslikka chaqiradi.

Biroq, mazkur qonun hujjatlarining ba’zilar zamon talablari hamda iqtisodiy rivojlanishga to‘siq yoki eskirgan tizim sifatida nomoyon bo‘lsa, qanday yo‘l tutish lozimligi ham turli davlat idoralarining bu kabi vaziyatlarga yechim topishdagi rolini yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Jumladan, o‘tkazilgan tahlillar, aniqlangan holatlar va mutaxassislarning fikri hatto keng jamoatchilik tomonidan bu kabi holatlarga nisbatan munosabatini o‘rgangan holda qonunchilik tashabbusidan kelib chiqib qonun matniga tegishli tuzatish kiritish taklifi bilan Oliy Majlisga murojaat qilish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari



departamenti yoki tashkilotlar o'zining zimmasida yuklatilgan vazifani ado etib bu bora Oliy Majlisga doimiy ravishda taklif kiritib borsa bu kabi qonunni buzilish holatlari uchramasligi mumkin.

Vaholanki, yaqinda tuzilgan Departament davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi ustidan monitoring olib borish, ushbu sohada jamoatchilik nazoratining samarali shakllarini joriy etish, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini tashkil qilish bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish, davlat tilining amal qilishi bilan bog'liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, uni rivojlantirish sohasida yagona davlat siyosati olib borilishi bo'yicha takliflar tayyorlash, o'zbek tilining yozma matni me'yor va qoidalarini ishlab chiqish va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini to'liq joriy etish borasidagi ishlarni jadallashtirish; hattoki ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tilini rivojlantirish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish kabi muhim vazifalarni bajarishga mas'ul qilib belgilangan.

Muxtasar qilib aytishimiz mumkinki, biz yuqoridagi kabi holatlar yuzasidan ijobiy natijani ko'rishimiz uchun tilimizni so'z boyligi va ma'no mazmun etikasini saqlab qolininishiga erishishimiz lozim.

Bundan tashqari, biz bugungi kunda tilimizni davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida davlat tilining qo'llanilishi, ish yuritish tili, davlat organlari va tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan tadbirlarda davlat tilining qo'llanilishi, normativ-

huquqiy va boshqa hujjatlar, shuningdek, ularning loyihalarida foydalaniladigan til, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarida ishlatiladigan til, sud ishlari yuritiladigan til, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish, fuqaroning shaxsini va huquqlarini tasdiqlashda qo'llaniladigan til kabi masalalari o'zida batafsil aks ettirgan Qonun hujjatiga muhtojmiz.

Amaldagi qonun esa, vaqt va zamon jihatdan ham yuqoridagi kabi muammolarni hal etishga yetarli darajada qodir emas.

Shu sababli tilimizni asrab avaylash tamoyilini ketidan quvib uni yopiq tilga ham aylantirmaslik va unda har qanday so'zni kiritib turib tilni saviyasini tushirib yubormaslik tizimini ishlab chiqish shart. Bu uchun esa, yuqoridagi talablarga javob beruvchi qonun hujjati ishlab chiqish vaqti keldi.

Taklif sifatida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasining roziligi bilan yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin o'zbek tiliga joriy etilishi amaliyotining o'rniga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

2017-yil 17-fevraldagi PF-2789-sonli Farmoniga binoan Fanlar akademiyasi huzurida "O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti" tashkil etilgan Fanlar akademiyasining mazkur instituti xulosasi asosida Departament hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining til markazlarining malakali ilmiy xodimlari bilan kelishgan holda xulosa berish asosida qonunchilik normalariga yangi atamalarni yoki so'zlarni kiritish kerak.



Buning uchun esa, “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunning 7-moddasida “yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis palatalari tegishli qo‘mitalarining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi” jumlasini “yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin Fanlar akademiyasining tegishli instituti

xulosasiga binoan o‘zbek tiliga joriy etiladi” jumlasiga o‘zgartirish lozim.

Bu bilan esa yuqoridagi kelishmovchiliklar ilmiy asosga ko‘ra hal etiladi.

Asrlar osha sayqallanib kelayotgan tilimizning sofligini, zamonbardoshligini saqlab qolish hamda uni kelajak avlodga ilm sifatida yetkazib berish uchun biz bugundan harakat qilishimiz lozim.

References:

1. <http://old.lex.uz/docs/>
2. Vazirlar Mahkamasining “Tibbiyot xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2009-yil 18-dekabrda 319-son qarori
3. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni
4. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-599-sonli Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi
5. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan O‘RQ-599-sonli Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi
6. O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 6-yanvarda qabul qilingan “Raqobat to‘g‘risida”gi O‘RQ-319-sonli Qonuni